

SUV RESURSLARINI ASRASH: MUAMMO VA YECHIM

ЭКОНОМИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ: ПРОБЛЕМА И РЕШЕНИЕ

SAVING WATER RESOURCES: PROBLEM AND SOLUTION

Inomjonov Zaxiriddin Zafarjon o'g'li

“Qishloq xo'jaligi huquqi va agroturizm” kafedراسi assistenti

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Isomiddinov Sanjarbek Axtamovich

Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Numonov Mansurbek Nosirjon o'g'li

Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annontatsiya: *Ushbu maqolada hozirda global tus olayatgan suvni, xususan ichimlik suvini ifloslanishi, cho'llanish va boshqa suv bilan bog'liq muammolarni hal etish, kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so'z borgan. “O'zbekiston-2030” strategiyasida nazarda tutilgan, shuningdek joriy yilda amalga oshirish rejalashtirilgan islohotlar qayd etib o'tilgan hamda dolzarb muammolar o'rganilgan holda qator takliflar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *suv resurslari, kongress, anjuman, taqchillik, konvensiya, “Yashil energiya”, tomchilab sug'orish, suv xo'jaligi obyektlari.*

Аннотация: *В этой статье рассказывается о том, что в настоящее время делается для решения проблемы глобального загрязнения воды, особенно загрязнения питьевой воды, опустынивания и других проблем, связанных с водой, а также для предотвращения будущих рисков. Были отмечены реформы, предусмотренные стратегией «Узбекистан-2030», а также запланированные к реализации в этом году, а также сделан ряд предложений после изучения текущих проблем.*


Ключевые слова: *водные ресурсы, конгресс, конференция, дефицит, конвенция, «Зеленая энергетика», капельное орошение, водохозяйственные сооружения.*

Abstract: *This article talks about what is currently being done to solve global water pollution, especially drinking water pollution, desertification and other water-related problems, and to prevent future risks. The reforms provided for in the “Uzbekistan-2030” strategy, as well as those planned to be implemented this year, have been noted, and a number of suggestions have been made after studying current problems.*

Key words: *water resources, congress, conference, shortage, convention, “Green energy”, drip irrigation, water management facilities.*

KIRISH

Yer sharining uchdan ikki qismini suvdan iborat bo'lsa ham, ularning atigi 2,5 % ni chuchuk (iste'mol uchun yaroqli) suv zaxiralari tashkil etadi(1-diagramma). Suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish, ularning yer yuzida bir tekisda tarqalmagani va aholi sonining oshib borishi natijasida qator muammolar vujudga kelmoqda. Misol uchun: cho'llashish, suvlarning ifloslanishi, qurg'oqchilik, suv taqchilligi va h.k. Yuqoridagi muammolar lokal, regional va achinarlisi global holda sayyoramizning turli nuqtalarida mavjud. Bu borada mamlakatimiz ham mustasno emas. Ichimlik suvi tanqisligi va Orol fojiasi hammamizni hushyorlikka chorlamoqda. Hukumatimiz yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun nafaqat Respublikamizning imkoniyatlaridan, balki xalqaro hamkorlikdan ham unumli foydalanmoqda.



1-diagramma. Sayyoramizda yer va suv taqsimoti.

2023-yil 11-sentyabr kuni Pekin shahrida XVIII Butunjahon suv Kongressining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. "Suv hamma uchun: inson va tabiatning uyg'unligi" mavzusidagi tadbir Xalqaro suv resurslari assotsiatsiyasi (IWRA) va Xitoy Xalq Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan tashkil etildi.



Unda O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev boshchiligidagi delegatsiya ishtirok etdi.[1] Butunjahon suv Kongressi butun dunyo bo'ylab suv resurslari sohasida siyosatchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarni to'playdigan keng ko'lamli anjuman hisoblanadi. Bu galgi anjumanda dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlari va suv resurslari bilan shug'ullanuvchi 130 dan ortiq xalqaro tashkilot va

tuzilmalardan vakillar, shuningdek, Xitoyning suv xo‘jaligi sohasidagi 700 ga yaqin mutaxassisleri ishtirok etdi (1-rasm).

1-rasm. 2023-yil 11-sentabrdagi XVIII Butunjahon suv Kongressi, Pekin shahri.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2023 yil 15-sentabr kuni Dushanbeda bo‘lib o‘tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta‘sischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisida masalaning qanchalik dolzarb ekani haqida ta‘kidlab o‘tdi:

“Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, Markaziy Osiyoning ayrim mintaqalarida 2040-yilga borib suv resurslariga bo‘lgan ehtiyoj uch barobar oshadi. Vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma‘lumotiga ko‘ra, hozirning o‘zidayoq mintaqa davlatlari suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yiliga 2 milliard dollargacha mablag‘ yo‘qotmoqda”[2].

2023-yil 10-oktabr kuni Samarqandda Cho‘llanishga qarshi kurashish Konvensiyasining bajarilishini ko‘rib chiqish qo‘mitasi 21-sessiyasini o‘tkazish to‘g‘risida bitim imzolandi. Hujjatni BMT Bosh kotibining o‘rinbosari, cho‘llanish va qurg‘oqchilikka qarshi kurash bo‘yicha Konvensiyaning ijrochi kotibi Ibrohim Tiav hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov imzolashdi. Ibrohim Tiav Cho‘llanishga qarshi kurashish Konvensiyasining bajarilishini ko‘rib chiqish qo‘mitasi 21-sessiyasining kun tartibiga qo‘yiladigan masalalar bo‘yicha o‘z nutqida eslatib o‘tdi:

“Biz O‘zbekiston Respublikasi va BMTning cho‘llanishga qarshi kurash bo‘yicha Konvensiyasi o‘rtasida Samarqandda Konvensiya yordamchi organining yigirma birinchi sessiyasini o‘tkazish to‘g‘risida bitim imzoladik. Ma‘lumki, har bir Konvensiyada tomonlar konferensiyasi, shuningdek, yordamchi organ mavjud. Bizning holatda, bu har ikki yilda bir marta yig‘iladigan konvensiyani ko‘rib chiqish qo‘mitasidir.

Bu yil butun dunyo Samarqandda birlashadi. Noyabr oyida Konvensiyaning 197 ishtirokchisi, shu jumladan, 196 hukumat va Yevropa Ittifoqi yer, suv, qurg‘oqchilik va ularning mamlakatlar jamiyati, iqtisodiyoti va ekologiyasiga ta‘siri bilan bog‘liq masalalarni muhokama qiladi.

Vaziyatning murakkabligi shundaki, yer yuzida yashovchi 8 milliard aholi to‘g‘ri ovqatlanish, uy-joy, kiyim-kechak va munosib yashash uchun zarur sharoitlarga muhtoj. Ammo shu bilan birga, ushbu sharoitlarni yaratib, biz yer yuzi va atrof-muhitni yer aholisi hayoti uchun himoya qilishimiz kerak”[3].

2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan “O‘zbekiston-2030” strategiyasi tasdiqlandi. Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab qo‘yildi. Suv resurslarini tejash bo‘yicha islohotlar quyidagi to‘rta asosiy maqsadlarni o‘z ichiga oladi:

- Respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyatini va suv ishlatish samaradorligini oshirish;

- Qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash;

- Irrigatsiya tizimi va suv tejoychi texnologiyalarni rivojlantirish, soha boshqaruviga xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish;

- "Yashil energiya" texnologiyalarini keng joriy qilish doirasida nasos stansiyalarining elektr energiyasi iste'molini kamaytirish.[4]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasining "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-300-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Unga ko'ra joriy yilda quyidagi jadvalda keltirilgan natijalarga erishish rejalashtirilgan (1-jadval) [5].

1-jadval.

Suv resurslarini tejash bo'yicha islohotlar				
T/r	Maqsadli ko'rsatkich	O'lchov birligi	2023	2024
1.	<u>Suv ishlatish samaradorligini 20 foizga oshirish.</u>	<u>foiz</u>	18	20
2.	<u>Tuproq o'زانli bo'lgan magistral va xo'jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini 39 foizga oshirish.</u>	<u>foiz</u>	38	39
3.	<u>Irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish ko'effitsiyenti ko'rsatkichini 0,67 gacha yetkazish.</u>	<u>ko'effitsiyent</u>	0,66	0,67
4.	<u>Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 1,4 mln gektargacha yetkazish.</u>	<u>million gektar</u>	1,2	1,4
5.	<u>Tomchilab sug'orish texnologiyasi qamrovini 550 ming gektargacha yetkazish.</u>	<u>gektar</u>	475 000	550 000
6.	<u>40 ta suv xo'jaligi obyektlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy qilish.</u>	<u>ta</u>	20	20
7.	<u>Nasos stansiyalaridagi eskirgan 322 ta nasoslarni energiya tejamkorlariga almashtirish.</u>	<u>ta</u>	174	148
8.	<u>Nasos stansiyalaridagi eskirgan 383 ta elektrodvigatellarni energiya tejamkorlariga almashtirish.</u>	<u>ta</u>	234	149
9.	<u>Energiya tejamkor qurilmalar o'rnatish, nasos stansiyalarini modernizatsiya qilish, ularning yillik elektr energiyasi iste'molini kamaytirish.</u>	<u>mlrd.kVt/soat</u>	7,145	7,06

XULOSA

Chuchuk suv zaxiralарimiz ko‘p emas, shuning ham katta qismi Shimoliy qutbdagi “abadiy” muzliklarda jamlangan. Ushbu muzliklar ham erib okean suvlariga qo‘shilib ketmoqda. Natijada nafaqat iste‘mol uchun yaroqli suv zaxiralari kamaymoqda, balki bu iqlimni jiddiy o‘zgarishiga olib ketmoqda. Yurtimiz hududida ham ichimlik suvi bilan ta‘minlash bilan bog‘liq muammolar mavjud. Shuningdek Orol dengizi ham ko‘z oldimizda “jon bermoqda”. Buning oqibatida Mo‘ynoqda baliqchilik sanoati kasotga uchradi va yetmaganiga uning qurigani sababli atrofdagi yerlar yaroqsiz holga keldi, mahalliy aholi orasida yurak, qon-tomir, buqoq va gepatit kasalliklari ko‘paymoqda. Bularni inobatga olgan holda butun dunyo hamjamiyati, shuningdek BMT Orolni asrashga, oqibatlarni bartaraf qilishga bel bog‘ladi. Xalqaro tashkilotlar tuzilib, ushbu muammolar muhokama qilinmoqda. “Suvni asrash-kelajakni asrash” degan ibora bejiz dunyoga kelmagan.

TAKLIF

Suv asrash va u bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish borasida quyidagi:

- tomchilatib, yomg‘irlatib sug‘orish tizimlarini joriy etgan, etayotgan va etmoqchi bo‘lgan xo‘jalik subyektlariga bonuslar berish;
- bonuslar imtiyozli kreditgina bo‘lmasdan, soliqlardan ma‘lum muddatga ozod etish, moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish shaklida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir;
- suvni ifloslantirish, suvga chiqindilarni tashlash va shunga o‘xshash huquqbuzarliklarga nisbatan og‘irroq javobgarliklarni belgilash;
- tashabbuskor, faol, atrof-muhitni muhofaza qilishda jonbozlik ko‘rsatgan fuqarolarga pul mukofotlari berish;
- “Har qatrada hayot mujassam” shiori ostida tanlov, seminar, davra suhbatlarini tashkil etish kabi bir qator ishlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.iarc.uz O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligi “Axborot-tahlil va resurs markazi”.
2. www.gazeta.uz
3. www.eco.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori.